










&gt; Mutolaa san'ati

Hermann HESSE

# Kitobning huzuriga qanday kelish kerak?

Ko'p odamlar mutolaa qilishni bilmaydi, yana ko'pchilik nima uchun o'qiyotganini. Ular hatto fikrlab ham ko'rmaydi. Mutolaaga faqat og'ir, ammo "ma'lumotlilik" uchun yagona yo'l deb qaraydi, har qanday o'qish ularni faqat "ma'lumotli" qiladi. Boshqalar uchun esa o'qish — shunchaki ko'ngil ochish, vaqtini o'tkazishdir. Ular uchun mohiyatan nima o'qishning farqi yo'q, faqat zerikmasa bas.



Janob Myuller Gyotening "Egmont"ini yoki Bayrot xonimining esdaliklarini ma'lumotli bo'lish va ongidagi ko'plab bo'shilqlardan birini to'dirish uchun o'qiydi. Bu bo'shilqlarni qo'rquv bilan qabul qiladi va doimo ularning borligini yodida tutadi, bu unga alomat bo'lib qolgan: bilim uning uchun — masshaqat bilan egallanadigan nimadir, tashqaridan qabul qilinadigan nimadir, u qanchalik ko'p o'qisa ham o'lik va samarasiz bo'lib qolaveradi.

Janob Mayer esa "ko'ngil ochish uchun", ya'mi zerkankidan o'qiydi. Uning vaqt yetarli, u sudxo'r, uning yushmanishidan ko'ra, bo'sh vaqt ancha ko'p. Yozuvchilar uning uzun kunlarini o'tkazishga yordam berishi kerak. U Balzakni o'qidi, qimmat tamakini qanday chekishi va Lenauni o'qidi, qimmat gazeta o'qidi.

Janob Myuller va janob Mayer xudu di oila a'zolari singari boshqa nar-

O'qilgan kitob bizga shodlik baxsh etmasa, galba malham bo'lmasa, xotirjamlik, quvvat bermasa, adabiyot tarixini bilishdan ma'ni yo'q.

Nemis adabiyotining ulug' namoyandalaridan, Nobel mukofoti sohibi Hermann Hesse (1877-1962) asarlari eng ko'p mutolaa qilinadigan olmon adiblaridan biridir. Uning ko'plab roman, qissa, hikoyalari, she'rlari, siyosiy, adabiy-tanqidiy asarlari chop etilgan. Ular orasida, ayniqsa, "Cho'l bo'risi", "Marjonlar o'yini", "G'ildiraklar ostida", "Demian" asarlari dovrug' qozongan.

qiladi, ammo o'sha "nimadir" ni aniq bilmaydi, baholay olmaydi. Ikkalasi aqsliz bemorday dorixonada yaxshi malhamlar ko'pligini bila turib, qutidan-qutiga, shishadan-shishaga o'tib, u yerdag'i barcha vositalarni sinab ko'rishga harakat qiladi. Aslida, chinakam dorixonadagiday kitob do'konii yoki kutubxonadan o'ziga zarur malhamni topishi, zaharlanmay, o'ziga ortiqcha choralar ko'rmay, yangi bilimi olishi kerak.

Biz, mualliflar uchun ko'p o'qishayotgani yoqimli. Ammo muallifning "Juda ko'p o'qishyapti", deyishi no'rin. Noto'g'ri talqin etilgan va salbiy qabul qilingan katta ko'lamdag'i mashg'ul uncha xursandchilik keltirmaydi. O'n nafar yaxshi, olijnob kitobxonga ega bo'lgan ma'qul, garchi ulardan kelayotgan foyda o'n karra quvnoq va boyroq bo'ldarid. Garchi bu kitobimiz solitishini kamaytirib yuborganda ham, shunda biz, mualliflar hozirgidan o'n barobar kamroq yozarmidik, baribir dunyoga hech zarar yetmas edi. Ya'ni kitob yozish bilan ish o'nglanib qolmaydi, hamma gap ulami o'qib, uqishdadir.

Rus tilidan HUMOYUN tarjimasi.

unga xizmat qilsagina qadrli bo'ladni, agar u kitobxonda zarracha kuch, jo'shqinlik, yangilik uyg'otmasa, mutolaaning har soniyasi zoye ketgan bo'ladni.

Yuzaki o'qish — bu fikrni jamlashga majbur qiladigan mashg'ulot. "Ovush" uchun o'qishdan-da ortiqroq yolg'on bo'lmasa kerak. Dardsiz odamlar ovunadigan ish topolmaydi, ular hamma joyda fikrni jamlab yurishi taqozo etiladi, qayerda bo'lmasisin, nima bilan shug'ullanmasin, niman ni o'ylamasin, o'zini doim voqealar markazida his etadi. Shuningdek, har bir o'qilgan yaxshi kitob — fikrni bir nuqtaga jamlash va betartib narsalarni samarali soddasdalishirish. Tuyg'ularni shunday soddasdalishirish va bir nuqtaga jamlash — bu eng kichik she'r demakdir. O'qiyotganida e'tiborni kuchaytirib, asarni his qilmasam, ishtirokchiga aylannamasan, demak, men yomon o'quvchiman! Asarga nisbatan bu nohaqilim meni hayajonga solmasligi mumkin. Ammo yomon o'qishim bilan o'zimga nisbatan nohaqil qilgan bo'laman. Arzimagan narsalarga vaqt sarflayapman, ko'zimming nuri ketiyati va tez orada unutib yuboradigan, muhim bo'lmagan narsalarga e'tibor qaratayapman, o'zim singdirolmag'an, befoya taassurotlar bilan ongimmi ortiqcha zo'riqtirayapman. Bunday e'tiborsiz o'qish ko'pa-

yishiga gazetalar aybdor deb ko'p aytishi. Bu tamomila noto'g'ri. Har kuni bir nechta gazeta o'qish, diqqatni jamlash, ruhan tetiklashish mumkin, yangiliklarni saralash va zudlik bilan muvoqilashtirish esa mutlaqo sog'lam va qimmatli mashg'ulot hisoblanadi. Ayni paytda "Saralangan o'xshashliklar" bilin olishiga intiladigan, sarguzasht ishqibozni Mayerning bo'lmagan usuli bilan o'qilish mumkin.

Umr qisqa. Uning narigi tonomida o'qilgan kitoblar soni haqida hech kim hisob so'ramaydi. Shuning uchun qimmatga ega bo'lmagan o'qishga vaqf sharflash zararidir. Men bu borada nafaqat yomon kitoblar, balki mutolaanning soniga ham e'tibor qilishinigini so'radim. Mutolaadan, uning har qadamidan hayot nafasi kelishi lozim, yanada ko'proq kuch yig'ish uchun kuch sharflash kerak. O'zingni yanada ongiroq his etishing uchun o'zingni fido qilishing kerak! Agarda o'qilgan kitob bizga shodlik baxsh etmasa, qalbga malham bo'lmasa, xotirjamlik, quvvat bermasa, adabiyot tarixini bilishdan ma'ni yo'q. Beparo, bemuholaza mutolaa qilish — go'zal ma'volarda ko'zningi bog'lab sayr qilish kabitidir.

Biz o'zligimizni, kundalik tashvishlarni unutish uchun emas, yanada sergak ong bilan hayot kemasining chambaragini mahkam tutish uchun mutolaa qilishimiz kerak. Kitob huzuriga manman o'qituvchining oldiga kelgan qo'rroq o'quvchiday emas yoki shnaps shishasi oldiga kelgan bekorchiday emas, balki cho'qilarni zabi etish uchun Alp po'yiga kelgan alpinistday, qurol-aslaha omboriga kelgan jangchidai kelishimiz kerak, go'yo olijinob odamlar do'stalar va madadkorlari yoniga kelganimday. Agar shunday bo'lganida, hozir o'qilayotgan kitoblarning o'ndan biri ham mutolaa etilmas, biz hozirgidan o'n karra quvnoq va boyroq bo'ldarid. Garchi bu kitobimiz solitishini kamaytirib yuborganda ham, shunda biz, mualliflar hozirgidan o'n barobar kamroq yozarmidik, baribir dunyoga hech zarar yetmas edi. Ya'ni kitob yozish bilan ish o'nglanib qolmaydi, hamma gap ulami o'qib, uqishdadir.

Ko'kaldosh madrasasi

Toshkent azimida saqlanib qolgan oz sonli tarixiy yodgorliklardan biri. U Sharq mohir san'atining nodir namunasini hisoblanadi.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandi "Tarixi jadidi Toshqand" kitobida Ko'kaldosh madrasasini Toshkent hokimi Darveshxon qurdirgani haqida yozib, uni Darveshxon madrasasi deb ham ataydi. 1569 – 1570-yillarga oid vaqfnoma hujattalarda madrasa aynan shu davrda qurib bitkazilgani bayon etilgan.



## 1 savolga 1 javob

Otasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi bilan sudlangan shaxslar ichki ishlar organlariga ishga kirishi mumkinmi?

Baxtiyor QURBONOV

Savolga yurist Farrux XUDOYBERDIYEV javob beradi:

— Ichki ishlar organlari to'g'risi-dagi Qonunda quyidagi shaxslarning xizmatga qabul qilinishi mumkin emasligi ko'rsatigan:

— belgilangan tartibda muomala-laga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan, deb topilgan fuqarolar;

— sudlanganlik holati tugallan-magan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

— ichki ishlar organlarida xizmatni o'tashga to'sqinlik qila-digan kasalligi yoki jismoniyuq nussoni bo'lgan fuqarolar.

Demak, yaqin qarindoshining sudlanganligi ichki ishlar organiga xizmatga kirishda to'sqinlik qilmaydi.

> Muhohaza

# "Shaytanat" dan shaytoniylik izlamang!



Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk bobolarimizning ijodi islomdan ayri tarzda o'rganilgani edi. Bizning ada-biy ildizlarimiz islomdan ham oldinroqqa borib taqalar ekan. Xo'sh, qanday qilib "Shaytanat" dagi bu jihatni tanqid ostiga olish mumkin? Adabiyot so'zining lug'aviy ma'nosi "odoblar to'plami"dir. Ammo bu so'z fan nomi va boshqa so-halar bo'yicha yozilgan qo'llanmalarni ham "Adabiyot" deyish bilan "siyasi chiqib", sezilarli darajada o'z kuchini yo'qtgan. Adabiyot o'mi kelganda insонни mushohadaga chorlashi, o'mishi, buguni va ertasini baholay olishi uchun ham xizmat qiladi. Asardagi aksar obrazlar e'tiqodi yo'qligi uchun ma'naviy in-qiroza yuz tutgan. Bu xususiyati ada-biyutshunos Tohir Shermuromovning "Shaytanat" asarida e'tiqod va axloq masalasi" maqolasidan bilishimiz mumkin. Bosh qahramon Asadbek bunga yorqin misoldir. U bolaligidan to vaqotiqa qadar turli murakkab holatlarga duch ke-ladi. Uning hayotga nisbatan qarashlari ham boshqalariniga o'xshamaydi. Oqibatda Asadbekning qo'l ostidagi kishilar ham jamiyat boshiga turli g'avgolar sola boshlyadi. Asadbek qalbidagi qasos o'ti uni "Shaytanat"ning jin ko'chalariga kirishga undaydi. U hamadolatsiz jamiyat qurbanlardan biri edi. Asarda keltirilgan rivoyatga e'tibor qaratask:

"O'g'irlik bo'yicha dong taratgan odamning oldiga bir o'smir kelib:

— Menga hami o'g'irlik ilmini o'rgating, — deydi. Mashhur o'g'ri taklifa-rozi bo'lghach, ustoz-shogird bir tovoqda taom yevishadi. Bola ovqatga o'ng qo'lini uzatibdi. Shunda ustozni bolaning qo'lliga urib:

— Bundan buyon faqat chap qo'ling bilan ovqatlan, chunki o'g'irlik qilib qo'liga tush-sang, dastlab o'ng qo'ling kesiladi, chap qo'ling seni oqilishdan saqlaydi, — deydi. Bola qo'rqaqidan o'g'ri bo'lmaganim bo'lsin, deya qo'chib ketadi".

Yuqoridaq rivoyat asliy yoki majoziy talqin etilganda ham ijobiy ma'beradi. Demak, asarda-gi rivoyatlarni o'rnisiz deb bo'lmaydi.

"Tohir Malik "Shaytanat" nomini asariga noto'g'ri tanlangan, o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan xatoga yo'l qo'yan", deydig'anlar ham topiladi. Ular bu so'z qaysi manbalarda uchrashini bilarmikan?

Hazrat Navoiy g'azalalarida:

"Riyoli shayxdirkim shaytanatdin tavqi la'natdek solur bo'yning tasbehni ul ma'bul",

tarzida uchrayıd. Abdulla Qodiriy romanlarida ham "shaytanat" so'ziga duch kelamiz.

"Shaytanat" eng oly hakam — vaqt va kitobxon sinovidan o'tgan asar. Mana necha yildirki, roman minglab nusxada qayta-qayta nashr qilinmoqda. 2017-yilda mafilif "Shaytanat"ni qayta tahrir qilib, har bir kitobiga nom berdi: "Qasos", "Non bergannning begonasi bo'lmaydi", "Semirgan chumoli", "Oqqush qo'shig'i" va "Azozil do'kon".

Muhammad HAYDAROV, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi



qorong'i kechalarda madrasa chiroqlariga qarab yo'llarini to'g'rilab olar ekan.

Bino dastlab uch qavat qilib qurilgan. Darvazadan kivaverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Hujralar soni 38 ta edi. Masjid va darsxonaning o'zaro kesishgan ravvoqlari ustida ichki va tashqi gumbazlar tiklangan. Peshtaq sirkor parchin va jilva naqshlar bilan bezatilgan.

1999-yildan boshlab Ko'kaldosh madrasasi Toshkenti islon o'rta maxsus bilim yurti, deb yuritib kelinmoqda.

B.ILHOMJONOV tayyorladi.

## Oltin meros

Ko'kaldosh madrasasi — Toshkent azimida saqlanib qolgan oz sonli tarixiy yodgorliklardan biri. U Sharq mohir san'atining nodir namunasini hisoblanadi.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandi "Tarixi jadidi Toshqand" kitobida Ko'kaldosh madrasasini Toshkent hokimi Darveshxon qurdirgani haqida yozib, uni Darveshxon madrasasi deb ham ataydi. 1569 – 1570-yillarga oid vaqfnoma hujattalarda madrasa aynan shu davrda qurib bitkazilgani bayon etilgan.


Ko'kaldosh madrasasi o'z vaqtida mayoy vazifasini ham bajargan. Savdo kavroni, sayyoh-u musofirlar bulutli kunlar va

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 150-22-74,

(71) 233-95-97,

(71) 233-79-69 (faks)



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formata chap etildi.

Hajmi — 2 bosma taboq.

Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma: G-813

Adadi — 18438

Boshiga topshirish vaqtli — 21.00

Topshirildi — 03.00

O'zA yakun — 02.30

1 2 3 4 5

BOSH MUHARRIR

Faxriddin KARIMOV

TAHIR HAYATI

Mansur Bekmurodov, Begmat Ochilov, Madamin Safarov, Azim Mirzajonov, Mehrinov Abbosova, Ra'no Shodiyeva, Shodmonkul Salomov, Hamza Abdullayev — bosh muharrir o'rbinosari ("Yoshlar ovozi"), Irina Kochergina — bosh muharrir o'rbinosari ("Molodezh' Uzbekistana"), Javlon Vafoyev — mas'ul kotib ("Yoshlar ovozi"), Yelena Kalinina — mas'ul kotib ("Molodezh' Uzbekistana")

Gazeta materialari tahririyat komp'uter markazida terildi va sahitafalandi.